TA’LIM TIZIMINI BOSHQARISHDA KASBIY MAS’ULIYATNING MUHIMLIGI

Shodiyev Bektosh Qurbonaliyev
Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumani
maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i

Mehnat jamoasi faoliyatining natijasi uning samaradorligi bilan belgilanadi. Mehnat jamoasi faoliyatining samaradorligi rahbar va xodimlarning o‘zaro muvofiq ish faoliyatiga bog‘liq. Mehnat faoliyatini samarali tashkil etish, rejalashtirish hamda jamoani boshqarishda ayniqsa rahbarning muhim jihatlaridan biri kasbiy mas’uliyat hissining muhimligi ni talab qiladi.

Hayotning ijtimoiy zarurati, ta’limni boshqarishning nazariy va metodologik jihatlarini maxsus ilmiy yo‘nalish sifatida qabul qilib, o‘quv-tarbiya jarayonini boshqarishning ilmiy asoslangan metodlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Ta’lim boshqaruvining asosiy jihatlarini nazariy va emperik nuqtai nazaridan asoslash rahbarlarni maxsus ilm va malaka bilan qurollantirish zarur bo‘ladi. Bu ularga boshqaruv jarayonida vujudga keladigan aniq muammolarni to‘g‘ri hal etish, ta’limga oid jumboqlarni holisona yechishga yordam beradi.

Bugungi kundagi eng asosiy muammo - boshqaruv tizimini kasbiy mas’uliyat hissini psixologik jihatlariga ahamiyat qaratish lozim. Buning uchun boshqaruv tizimini soddalashtirish, uning turdosh tuzilmalarini birlashtirish, oraliqdagi o‘rinsiz bo‘g‘inlarni qisqartirish, har bir tizim darajasidagi vazifalar mohiyatidan imkon qadar oqilona foydalanish eng asosiy vazifalardan bir sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi davrda ta’limni qayta qurishda boshqaruvning quyidagi jihatlariga e’tibor qaratish talab etiladi: ishni rejalashtirish; pedagoglar va o‘quvchilar mehnatini tashkil etishning yangicha va foydali shakllarni izlab topish; rahbarlik faoliyatida sharq mutafakkirlarining boshqaruv sohasidagi ta’limotlaridan unumli foydalanish; quyidan nazorat; hisob-kitob va hisobot; boshqaruv darajasidagi o‘zgarishlar, voqealarga e’tibor bilan qarash va tuzatish kiritish, jamoani ruhlantirish; pedagogik jamoaning ijodiy faolligini oshirish; maktab jamoasi va uning har bir a’zosi faoliyatini chuqur tahlil etib o‘rganish va boshqalar.

Ta’lim boshqaruvida boshqa turdagi faoliyatlar qatori eng muhimi boshqaruvning maqsadi belgilanadi.

Ta’lim tizimini ilmiy jihatdan boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilar xisoblanadi:

boshqaruv mazmunida o‘z aksini topgan davlat va ijtimoiy ta’lim manfaatlarining dialektik birligi;

hozirgi zamon maktabi oldida turgan murakkab vazifalar bilan bog‘liq bo‘lgan boshqaruv qirralarining kengayishi;

ta’lim boshqaruvi qonuniyatlarining obyektiv va subyektiv jihatlarini idrok etib undan samarali foydalanish, sifat jihatidan yanada mukammal holatga yetkazish;

ta’lim boshqaruvi shakl va metodlarini milliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda doimiy ravishda takomillashtirish;

zamonaviy informatsion-kommunikativ texnologiyalardan foydalangan holda boshqaruvning psixologik, matematik, statistik hamda iqtisodiy metodlarini joriy etish hamda boshqaruv texnikasini rivojlantirish.

Hozirgi paytda boshqaruv jarayonini belgilashda turli harakterdagi yondoshuvlar mavjud. Boshqaruv rahbarlik qarorlarini qabul qilish va uni

tadbiq etish, yoki ta’lim jarayoni sifatida, boshqa xilda ifodalaganda boshqaruv jarayonida ma’lumotlarning doimiy harakati, to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki uning aks sadosi natijasi sifatida talqin etilmokda.

Boshqaruv - ma’lum sharoitda har bir xodim, guruh yoki tashkilot faoliyatiga bevosita ta’sir etuvchi, imkoni boricha yuqori, yaxshi natijalarga erishishga qaratilgan jarayon hisoblanadi.

Boshqaruv jarayonining yana bir, nisbatan to‘g‘ri yo‘nalishi - tizimli boshqaruv hisoblanadi, chunki uni faqat aniq tizim orqali boshqarib bo‘ladi.

Umuman olgada, ta’lim tizimini boshqarish va uni nazorat qilish rahbardan muhim individual psixologik xususiyatlarni e’tiborga olishni talab etadi. Hozirga davrda rahbarlar ayniqsa, ta’lim tizimini boshqarish uchun rahbarga xos mas’uliyat hissini o‘zida to‘laqonli mujassam etishi zarur hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi. T.: «Yangi asr avlodi»,2007.-328 b.

2. Герасимов Б.Н. Профессионализм в управленческой деятельности. Инновационное управление персоналом. Сборник трудов V Всероссийского кадрового форума 28 мая 2014 года. 19-23 с.

3. Muxamedova D.G. Ta’lim menejerini innovatsion faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik texnologiyalarini takomillashtirish: Doktorlik diss.avtoref.: 19.00.05. – T.: TDPU, 2015.